

2022-yil 13-iyul

“O'zkimyosanoat” AJ tizim korxonalarida xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raislari saylandi



“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi, xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi S.Abduraxmanova tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 87-son Farmoni hamda “O'zkimyosanoat” AJning 2022-yil 31-maydagi 73-son “O'zkimyosanoat” AJ markaziy apparati xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisini tasdiqlash to'g'risida” qabul qilingan buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 7-, 13-, 14-, 21-, 22-, 23-, 24-, 29-iyun va 6-iyul kunlari “Ammofos-Maxam” AJ, “Birinchi rezinotexnika zavodi” MCHJ, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ, “Maxam-Chirchiq” AJ, “Navoiyazot” AJ, “Farg'onaazot” AJ, “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJ, “O'zkimyosanoatloyiha” AJ, “Qo'ng'irotda soda zavodi” MCHJ Qklariga

xizmat safarlari uyushtirildi.



Xizmat safarlari davomida 11 ta tarmoq korxonalarida ishchi xotin-qizlarning takliflari asosida ovoz berish yo'li bilan xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raislari saylandi. Ularning kelgusidagi faoliyatiga yuksak ishonch bildirildi. Shuningdek, korxonalariga tashrif davomida xotin-qizlar bilan sayyor qabullar o'tkazildi. Xotin-qizlar uchun yaratilgan ish sharoitlari o'rganildi.



10488 nafar (*xodimlarning umumiy soniga nisbatan 35%*) xotin-qizlar faoliyat olib borayotgan "O'z kimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyatida xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti Nizomi va Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot Kengashining 2022-yil II yarim yilligi uchun ish rejalari tasdiqlandi.



Uzkimyosanoat AT
MATSUOT XIZMATI





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tizim-korxonalarida-xotin-qizlar-boshlangich-tashkiloti-raislari-saylandi>